

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.M.Zokirova	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
I.T.Xojaliyev	
Tasvir nutq tipining modal aspekti.....	1319
M.A.Usmanova	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
R.N.Umarova, O.U.Xolmatova	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati	1328
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
A.I.Saminov	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
G.Z.Rozikova	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar	1346
N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova	
Allegory as a research object of linguistics	1351
E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili	1354
U.I.Nosirova	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi	1360
Sh.R.Mo'yidinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
Y.I.Karimov	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini	1369
G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili	1373
D.M.Ismoilova	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari	1378
G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar	1388
E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi	1392
Sh.M.Iskandarova	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar	1397
X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi	1401
Z.A.Akbarova	
Inson dunyoqarashi olamni modellashiruvchi sifatida	1406
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
O.Q.Abbozov	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
I.T.Axmadjonov	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
M.T.Abdupattoyev	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish	1422
A.Mamajonov, O.Q.Abbozov	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
M.T.Abdupattoyev	
Matnning statistik tahlili.....	1433



UO'K: 512.133'373.

“QISASI RABG‘UZIY” ASARIDA QO‘LLANGAN KO‘MAKCHILAR TAHLILI**ИСПОЛЬЗОВАНО В РАБОТЕ «КИСАСИ РАБГУЗИ». АНАЛИЗ
ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЕ СЛОВА****USED IN THE WORK "KISASI RABGUZI". ANALYSIS OF AUXILIARY WORDS****Jo'raboyeva Gulrux Solijonovna¹**¹Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.**Ergashova Gulsanam Valijon qizi²**²Farg'ona davlat universiteti, Filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi 1-kurs talabasi**Annotatsiya**

Maqolada Nosiriddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uziy tomonidan yozilgan va eski o'zbek tili xususiyatlarini o'zida aks ettirgan "Qisasi Rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlil etilgan. Nosiriddin Rabg'uziy Xorazmning Raboti O'g'uz degan joyidan bo'lib, XIII asning oxiri – XIV asming boshlarida yashagan. Adibning bizgacha faqat "Qisasi Rabg'uziy" asari saqlanib qolgan va u turkiy tilda nasrda bitilgan birinchi yirik asar hisoblanib, keyinchalik "Qisasul-anbiyoyi turkiy" nomi bilan shuhrat topgan. Asarda eski o'zbek tiliga oid juda ko'plab ko'makchilar ishtirok etgan va ularning ayrimlari bugungi kunda iste'moldan chiqib ketgan. Ko'makchilarning mustaqil ma'noli so'zlardan farqi ko'makchilarda mustaqil leksik ma'no yo'q ekanligidagina emas, balki ko'makchilardagi leksik ma'no qandaydir o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ular mustaqil ma'noli so'zlarga birikkandagina paydo bo'lishidadir. Mustaqil so'zlarning ko'makchilarga o'tishi undagi leksik va grammatik xususiyatlarning o'zgarishiga olib keladi. Ko'makchilar grammatik kategoriya bo'lgani uchun ham tilda ko'makchilarning paydo bo'lishi grammatikaning bir elementi hisoblanadi. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham ko'makchilar guruhining kengayishi XII-XIII asrlarga to'g'ri keladi. Umumxalq tilining nodir namunasi asosida yozilgan "Qisasi Rabg'uziy" asarida ham yordamchi so'z turkumiga kiruvchi ko'makchilarning keng qo'llanishi yuqoridagi fikrlarning to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi va o'z navbatida ularning tadqiqi o'zbek tili tarixi hamda hozirgi o'zbek tilidagi ayrim nazariy qarashlarga oydinlik kiritadi.

Аннотация

В статье анализируются вспомогательные средства, использованные в произведении «Кисаси Рабгузи», написанном Рабгузи, сыном Насируддина Бурханиддина, которое отражает особенности староузбекского языка. Насируддин Рабгузи был выходцем из Рабати-Огуза Хорезма и жил в конце 13 – начале 14 веков. До нас дошло только произведение писателя «Кисаси Рабгузи», которое считается первым крупным произведением, написанным в прозе на турецком языке, а позднее прославилось под названием «Кисасул-анбийейи Турки». В работе участвовало множество помощников староузбекского языка, некоторые из них сегодня вышли из употребления. Отличие вспомогательных слов от слов с самостоятельным значением состоит не только в том, что вспомогательные слова не имеют самостоятельного лексического значения, но и в том, что лексическое значение вспомогательных слов имеет определенную характеристику, делающую их самостоятельными словами. Оно проявляется только тогда, когда оно к ним присоединяется. Переход самостоятельных слов во вспомогательные приводит к изменению их лексических и грамматических особенностей. Поскольку вспомогательные средства являются грамматической категорией, появление вспомогательных средств в языке является элементом грамматики. Расширение группы помощников на тюркских языках, в том числе и на узбекском, относится к XII-XIII векам. Широкое использование вспомогательных слов в произведении «Кисаси Рабгузи», написанном на основе редкого образца общечеловеческого языка, подтверждает правильность изложенных мнений, а их изучение, в свою очередь, является историей узбекского языка и современности, осветить некоторые теоретические взгляды на узбекский язык.

Abstract

The article analyzes the auxiliaries used in the work "Qisasi Rabguzi" written by Rabguzi, the son of Nasiruddin Burhaniddin, which reflects the characteristics of the old Uzbek language. Nasiruddin Rabguzi was from Rabati Oguz, Khorezm, and lived at the end of the 13th century and the beginning of the 14th century. Only the writer's work "Qisasi Rabguzi" has survived to us, and it is considered the first major work written in prose in the Turkish language, and later became famous under the name "Qisasul-anbiyoyi Turki". Many assistants of the old Uzbek language participated in the work, and some of them have fallen out of use today. The difference between auxiliaries and words with independent

meaning is not only that auxiliaries do not have an independent lexical meaning; but that the lexical meaning of auxiliaries has a certain characteristic, which makes them independent words. It appears only when it is attached to them. The transition of independent words to auxiliaries leads to changes in their lexical and grammatical features. Since auxiliaries are a grammatical category, the appearance of auxiliaries in a language is an element of grammar. The expansion of the group of assistants in Turkic languages, including Uzbek, dates back to the 12th-13th centuries. The widespread use of auxiliary words in the work "Qisasi Rabguzi" written on the basis of a rare example of the universal language confirms the correctness of the above opinions, and in turn, their study is the history of the Uzbek language and the present sheds light on some theoretical views of the Uzbek language.

Kalit so'zlar: mustaqil so'z turkumi, yordamchi so'z turkumi, ko'makchi, sof ko'makchilar, vazifadosh ko'makchilar, etimologik tahlil, tarixiy morfologiya, o'g'uz-qipchoq tili unsurlari, qarluiq-uyg'ur tili unsurlari.

Ключевые слова: самостоятельная группа слов, вспомогательная группа слов, вспомогательные, чистые вспомогательные средства, функциональные вспомогательные средства, этимологический анализ, историческая морфология, элементы огуз-кипчакского языка, элементы карлук-уйгурского языка.

Key words: independent word group, auxiliary word group, auxiliary, pure auxiliaries, functional auxiliaries, etymological analysis, historical morphology, elements of the Oghuz-Kipchak language, elements of the Qarluiq-Uygur language.

KIRISH

Turkiy tillarda ko'makchilar mustaqil so'z turkumlaridan rivojlangan, lekin mustaqil so'zlarning ko'makchilar turkumiga o'tishi uzoq davrlar davomida yuz bergan jarayondir. Bunday so'zlar o'z ma'nosida qo'llanishi bilan birga, o'rni bilan ko'makchi funksiyasini ham bajara bergan. Davrlar o'tishi bilan ular o'z leksik ma'nosini yo'qotib, ko'makchilar turkumiga o'tgan. Turkiy xalqlarning V-VIII asrlarga oid eng qadimgi yozma yodgorligi hisoblangan O'rxun-Enasoy obidalarida ko'makchilar kam sonni tashkil etadi. XI asrga oid "Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'otit turk" asarlari tilida ko'makchilar soni ancha ko'paygan. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, asosan, XII-XIII asrlardan boshlab turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida ko'makchilar guruhi yanada kengaya borgan [1; 199]. Umumxalq tilining nodir namunasi asosida yozilgan "Qisasi Rabg'uzi"⁸⁴ asarida ham yordamchi so'z turkumiga kiruvchi ko'makchilarning keng qo'llanishi yuqoridagi fikrlarning to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

"Qisasi Rabg'uzi" asari 1309-1310 yillarda Nosiriddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uzi tomonidan yozilgan. Nosiriddin Rabg'uzi Xorazmning Raboti O'g'uz degan joyidan bo'lib, XIII asning oxiri – XIV asrning boshlarida yashagan. Adibning bizgacha faqat "Qisasi Rabg'uzi" asari saqlanib qolgan va u turkiy tilda nasrda bitilgan birinchi yirik asar hisoblanib, keyinchalik "Qisasul-anbiyoyi turkiy" nomi bilan shuhrat topgan. Taniqli turkiyshunos va tilshunos olim Ergash Fozilovning qayd etishicha, asarning kattagina qismi V.Radlov, V.Tomsen, M.Melioranskiy, E.Malov, L.Kotvich, N.Kononov, Bosim Atalay va N.Najib singari atoqli rus hamda xorijiy turkiyshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu asar tili va uslubini o'rgangan A.Muxtorov, U.Sanaqulovlarning ta'kidlashicha, manba tilida o'g'uz hamda qipchoq tillariga xos xususiyatlar ustunlik qiladi. Shu bilan birga qarluiq-uyg'ur tili unsurlari ham ishlatilganligi ko'rinadi [2; 74].

"Qisasi Rabg'uzi" asarida qo'llangan ko'makchilarni lingvistik tavsiflash va tasniflash, etimologik tahlil etish usullaridan foydalanish, chunonchi, ko'makchilarning tarixiy-etimologik qatlamlarini aniqlash uchun turli ilmiy adabiyotlarga, tarixiy-etimologik manbalarga murojaat qilish tadqiqotimizning asosiy metodologiyasini tashkil qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ko'makchilar vosita, qurol, maqsad, sabab, payt, o'rin va shart kabi ma'nolarni bildirish uchun qo'llaniladigan yordamchi so'z turkumidir. Ko'makchilar ot, olmosh, harakat nomi va sifatdashlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiladi [5; 74]. "Qisasi Rabg'uzi" asarida uchraydigan ko'makchi va ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi so'zlarni hozirgi o'zbek tilidagi kabi ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin: 1) sof ko'makchilar; 2) vazifadosh ko'makchilar.

⁸⁴ Barcha misollar ushbu manbadan olindi: Носируддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 240; Носируддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 2-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – Б. 272.

TILSHUNOSLIK

1. **Sof ko'makchilar.** Mustaqil so'z turkumlaridan ajrab chiqqan, atash ma'nosini tamoman yo'qotgan va o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelantirib bog'lash uchungina xizmat qiladi. Biz tadqiq etayotgan asarda quyidagi sof ko'makchilar qo'llangan.

1. **Uchun** ko'makchisi. Asosan, bosh kelishik shaklidagi ismlarga qo'shilgan va quyidagi ma'nolarni ifodalab kelgan:

a) sabab ma'nosini bildiradi: *Rayyong'a yovuq bo'lmishda "Mani saqing'il" teganini unutmadi uchun* uftanib aydi (137-bet).

b) atalganlik ma'nosini bildiradi: *O'n ikki yil zindonda maning uchun* yotdi va sirrimni ochmadi va aybimni aytmedi (138-bet).

s) maqsad ma'nosini bildiradi: *Yusufni zindonga yangilab solmish bo'lg'aylar, bizga harom turur yo kendu sizlarni sinamoq uchun* qo'ymish bo'lg'aylar (144-bet).

2. **Birla** ko'makchisi. Bu ko'makchi XI-XIV asrlar yozma obidalarida keng qo'llangan, lekin keyinchalik uning qisqargan *bile* formasi ham qo'llana boshlagan [3; 90]. Xususan, *bile* ko'makchisining kelib chiqishi haqida T.Rustamov quyidagilarni qayd etadi: bu ko'makchining yetakchi morfemasi son so'z turkumiga oid "bir" leksemasi bo'lib, unga qadimgi turkiy tilda "birga" ma'nosini ifodalovchi -la qo'shimchasi qo'shiladi. Keyinchalik affiksdagi "-l" undoshi ta'sirida asosdagi "-r" undoshi ham "-l" undosh tovushiga aylangan va ikki "-l" undoshining biri talaffuzda tushib qolishi natijasida bizga *bile* tarzida yetib kelgan [4, 129]. Asarda asosan *birla//bile//birlan//bilan* ko'makchisining *birla* shakli ko'p uchrashiga guvoh bo'lamiz va bu ko'makchi quyidagi ma'nolarni ifodalab keladi:

a) birgalik ma'nosini: *O'shal kun Bashir Mubashshira birla kirib* Ya'qubga sevunchiladilar.

b) vosita ma'nosini: *Ibrohim yil oldi, pichoq birla* yenginga suqdi, tog'ga boru boshladi.

s) holat, sabab ma'nosini: *Yo'q bo'ldilar izi qudrati birla* (93-bet). Tazvir va hiyla *birla* Yusufning ko'nglun qo'pordilar (105-bet).

d) harakatning nima bo'yicha yo'nalishini: *Bu yo'lni qo'yding ersa, qayu yo'l birla* yurursen? (112-bet)

e) payt ma'nosini: *Ibrohim tong birla* qo'pdi yuz qo'y kelturdi qurbon qildi (77-bet).

3. **Uzra** ko'makchisi. "Qisasi Rabg'uziy"da bu ko'makchining boshqa varianti, ya'ni *uza* ko'makchisi faol qo'llangan. *Uza* ko'makchisi ikki qismdan iborat: "yuza" ma'nosidagi "uz" so'ziga jo'nalish kelishigi affiksi -ra qo'shilishi bilan hosil bo'lgan [1; 202]. *Uza* ko'makchisi ham bir necha ma'nolarni ifodalab kelgan:

a) ish-harakatning biror narsa-predmet ustida bo'lishini ifodalaydi: *Onasi ujmoh ichinda hulla kiyib taxt uza* o'lturur, tegrasinda hurlar hidmat qilurlar (84-bet).

b) ish-harakatning narsa-predmetga qaratilganini bildiradi: *Tamug' o'tini Muhammad Mustafoning ummatlariga sovg'ayman, netakkim baqirni temur uza* bukartek (143-bet).

4. **Ichra** ko'makchisi. Bu ko'makchi "ichida" degan ma'noni anglatadi: *Otamiz Odamni ujmoh ichra* nurdin taxt uza og'durub, ko'k farishtalarin otamizning o'nginda sajda qildurdi (23-bet).

5. **Taba** ko'makchisi. *Taba*, asosan, XII-XIII asrlarda qo'llangan bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilida iste'moldan chiqib ketgan. G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurovlar bu ko'makchi ish-harakatning yo'nalishini ko'rsatishini qayd etadilar [1, 204]. Fikrimizcha, hozirgi tomon ko'makchisi bilan bir xil vazifa bajargan: *Maning xushnudliqim tilar ersangiz Yaman viloyat taba* otlaning (177-bet).

6. **Tegi, teginch** ko'makchisi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanuvchi *qadar, gacha, to* yordamchilariga to'g'ri keladi va ish-harakatning payt yoki o'ringa nisbatan chegarasini bildirib keladi: *O'luklar tirilgu kunga tegi* umrum bo'lsa, anchada Jabroil, Isrofil, Azroil taqi azin farishtalar qamug' o'lmish bo'lsalar tengri yolg'iz qolmishda aning birla to'qushg'aymen (21-bet). *Ul kunga teginch* ul tort butdin ne'matlik yer yoq erdi (67-bet).

7. **Tegru** ko'makchisi. Bu yordamchi so'z *tegi* ko'makchisi bilan sinonimlik hosil qiladi va har ikkisi ham *teg* (*tegmoq, yetmoq*) fe'li asosida vujudga kelgan: *teg(i)r+u+tegri (>degru)* [1, 205]: *Otamiz Ya'qub yalavoch bu kunga tegru* bir o'gil uchun yig'lamoqdin ko'zlari ko'mas bo'ldi (156-bet).

8. **Sayu** ko'makchisi. Bu ko'makchi bosh kelishikdagi ismlarga qo'shiladi va u eski o'zbek tilida, asosan, -gan/-gan/-qan/-kan affiksli sifatlash bilan qo'llanib, ish-harakatning davomiyligini ko'rsatadi. Hozirgi o'zbek tilidagi *sayin* ko'makchisiga to'g'ri keladi. [5, 205]: *Qamug'in Ismailga berdilar. Yil sayu* mundag' qilurlar erdilar (31-bet).

II. Vazifadosh ko'makchilar. Barcha so'z turkumlaridan emas, balki asarda ham aynan ot, ravish, sifat so'z turkumlaridan yasalgan. Shunga ko'ra, vazifadosh ko'makchilarni uch guruhga ajratish mumkin: 1) ot-ko'makchilar; 2) ravish-ko'makchilar; 3) sifat-ko'makchilar. Bu so'z turkumlari ko'makchi vazifasida kelganda o'z ma'nosini yo'qotadi, shuning uchun ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydi.

1. Ot-ko'makchilar. Ot-ko'makchilar bilan ifodalangan so'z qaratqich kelishigidagi so'z bilan birga keladi va moslashuv munosabatini ifodalaydi. Asarda *old, ich, ora, tub, bosh, ust, qat* kabi ko'makchilar ishtirok etgan.

a) **old** ko'makchisi: *Muhammad al-Mustafoning odamning oldinda qo'miyur erdi to'lun oy mengazlik* (18-bet).

b) **ich** ko'makchisi. Bu ko'makchiga jo'nalish va chiqish kelishigi qo'shib kelinib, ish-harakatning ma'lum vaqtda bo'lishini, o'mini bildirib keladi: *Bu qirq ku ichinda oshliqlari, ekinlari ko'rklandi* (173-bet). *Olam ichinda qayu yerdur kim anga bit yo'li kun tegdi* (175-bet).

s) **qat** ko'makchisi. Bu ko'makchi asar yozilgan paytdagina iste'molda bo'lgan: *Sara taqi Ibrahim qatinda olturdi* (29-bet).

d) **ora** ko'makchisi. Bu ko'makchi ish-harakatning qayerda bo'lishini ko'rsatib keladi: *Masiyatdan yig'iling, xalq orasinda ko'ni hukm qiling* (37-bet).

e) **ust** ko'makchisi: *Yusuf otasini ot ustindin quchdi* (161-bet).

f) **bosh** ko'makchisi. Bu ko'makchi kelishik affiksini olib, asarda *boshig'a, boshing'a, boshindin, boshinda* kabi formalarda qo'llanadi: *Boshlarin ilkiga olib berk tutub undadi, tengri yorlig'i birla u tog' boshindin uchdilar* (85-bet). *Yilqi qorag'a tuproq yuklab adiz tog'lar boshing'a sochib oshliq teriyur erdilar* (40-bet). *Ul kecha o'lgandin so'ng tushurdilar, tog' boshinda qo'ydlilar* (73-bet).

g) **tub** ko'makchisi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanayotgan *tagida* ko'makchisiga to'g'ri keladi: *Azoqinda na'linni bir tubinda qo'zdi* (37-bet). *Ul oqarda bir kishi tom tubidin otub borur erdi aning to'niga suv tomd* (152-bet).

2. Ravish-ko'makchilar. Asosan, payt ma'nosini ifodalab keladi va asarda *burun//burna, kezin, ashnu, beri, o'tru* kabi ravish-ko'makchilar ishtirok etgan.

a) **burun//burna** ko'makchisi. Bu so'zning ko'makchi vazifasida qo'llanishi, asosan, XIII-XIV asrlardan boshlab kuzatiladi [1; 212]: *Tevani o'tturdumiz Solihnima o'tturaling, bizga azob tegmasdin burun* (57-bet). *Bular burnaroq borib bir tepaga og'dilar* (105-bet).

b) **ashnu** ko'makchisi. Asarda *ilgari* ko'makchisiga sinonim tarzda qo'llangan va hozirda bu so'z iste'moldan chiqib ketgan: *Ibrohim aydi: "bahosi ul turur, yemazda ashnu "bismillohi" tengiz, taom qilishda "Al-hamdu lilloh" tengiz"* (91-bet).

s) **keyin, so'ng, so'ngra** ko'makchisi ma'no jihatidan bir-biriga yaqin turadi. Aynan *keyin* ko'makchisi asar tilida *kezin* shaklida qo'llangan: *Bir yilda kezin banu Harim ulug'ining qizi sayyida bint Massos al-Xurxumiy qizini qo'ldi* (76-bet).

d) **beri** ko'makchisi. Ish-harakatning qachondan beri davom etib kelayotganini bildiradi va chiqish kelishigidagi so'z bilan ifodalanadi: *Muncha yildin beri maning ne'matimni yeb, maning tushumni azg'osi ahlom teyursiz* (137-bet).

e) **o'tru** ko'makchisi. Bu ko'makchi hozirgi o'zbek adabiy tilidagi *tomon* ko'makchisiga to'g'ri keladi va asarda yo'nalish ma'nosini bildirgan: *Yilon Odam va Havvoning taxtinda o'tru kelib to'ruqdi, og'zining tili oltinda Iblis so'zladi* (137-bet).

3. Sifat ko'makchilar. *Azin, o'zga* va *boshqa* ko'makchilari sifat so'z turkumidan yasalgan va bu so'zlarning ko'makchi vazifasida qo'llanishi XII-XIV asrlardan boshlab ma'lum bo'lsa ham, faol qo'llanishi XV asrdan boshlab kuzatiladi [1, 214]. Lekin bu so'zlarning orasida *azin* ko'makchisi hozirda iste'moldan chiqib ketgan: *Olam ichinda bu yetti kishi qoldi azin him ersa qolmadi* (45-bet). *Sizdin o'zga qarindosh ini og'angiz bormu?* (143-bet). *Bu kun to'rt kun bo'ldi sizdin boshqa ayrilg'ali* (88-bet).

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni qayd qilish kerakki, "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi ko'makchilarni tadqiq etish – eski o'zbek tilida ularning qaysilari keng iste'molda bo'lganligini, keyingi davrlarda mazkur ko'makchilardan qaysilari iste'moldan chiqqanligi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni bera oladi. Turkiy tillarda yaratilgan bu kabi asarlar o'zbek tili tarixiy fonetikasi, leksikologiyasi, morfologiyasi,

TILSHUNOSLIK

qolaversa, sintaksisi uchun boy materiallar beradi va hozirgi o'zbek tilidagi ayrim nazariy qarashlarga oydinlik kiritadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
2. Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
3. Абдурахмонов Ф. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989.
4. Рустамов Т. Ҳозирги ўзбек адабий тилида кўмакчилар. – Тошкент: Фан, 1965.
5. Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
6. Бахтиёр Исабек. Туркологияга кириш. – Тошкент: Akademnashr, 2016.
7. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
8. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009.